TALABALARDA FASILITATORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI

Xamidova S.A., GDPI
o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu tezisda pedagogika yo‘nalishi talabalarida fasilitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning mazmuni xaqida fikr bildirilgan. Talabalarda faslitatorlik ko‘nikmalarini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, shakillantirishning Zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar tizimi va tashkil etish shakllari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fasilitator, ko‘nikma, malaka, ixtisoslik fanlari, interfaol metod, vositalar, metodlar, tizimi, shakllari, molellashtirish, mustaqil ta’lim.

Аннотация: в тезисах рассматриваются содержание развития навыков фасилитатсии у студентов педагогического факултета. Подробно описаны организатсионно-педагогические условия совершенствования фасилитатсионных способностей студентов, система современных педагогических средств, методов и организатсионных форм формирования.

Ключевые слова: преподаватель, навыки, квалификатсия, спесиализированные диссиплины, интерактивный метод, инструменты, методы, система, формы, моделирование, самостоятелное обучение.

Abstract: this article discusses the content of the formation of facilitation skills in students of the pedagogical direction. The organizational and pedagogical conditions for improving facilitation skills in students, the system of modern pedagogical tools, methods and forms of organization of formation are described in detail.

Keywords: facilitator, skills, qualifications, specialized disciplines, interactive method, tools, methods, system, forms, modeling, independent learning.

Bugungi kunda talabalarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda oid bo‘lgan tadqiqotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, fasilitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratadilar. Pedagogika yo‘nalishi talabalarida fasilitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda harakatlantiruvchi kuch hamda foslitatorlik faoliyatga tayyorlash usullari, vositalari va ularni optimallashtirish imkoniyatlari uchun kerakli hamda maqsadga muvofiq bosqichlar, jarayonlar va davrlarga ajratib ko‘rsatiladi.

Tahlillarimizdan kelib chiqqan holda, Pedagogika yo‘nalishi talabalarida fasilitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirish muammosini tahlil qilishda quyidagi asosiy bosqichlarni ajratib ko‘rsatishni lozim deb topdik:

Birinchi bosqich – oliy ta’lim muassasalari talabalarida foslitatorlik sohalariga boshlang‘ich yo‘naltirish va umumlashtirish, umumiy rivojlanish ta’sirida kasbiy innovatsion faoliyatda fostitatorlik bilan shug‘ullanish istagini paydo bo‘lishi va shakllanishi.

Ikkinchi bosqich – talabalarni tanlangan mutaxasssisliklari bo‘yicha faslitatorlik ko‘nikmalarining maqsadli tayyorgarlik bosqichi.

Uchinchi bosqich – faslitatorlik faoliyatda kirishish jarayoni, ishlab chiqarish jarayonida o‘z o‘rnini topish, tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha kasbni faol egallash bilan tavsiflanadi.

Talabalarda faslitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirishdan asosiy maqsad – tanlagan sohasiga oid bo‘lgan bilimlarni shakllantirish, kasbining mazmun va mohiyatini tushunib yetishlari uchun shart-sharoitlar va barcha imkoniyatlarni

yaratish, kasb tanlashga yo‘naltirish, talabalarda kasbiy innovatsion faoliyatga yo‘naltirish borasidagi ko‘nikmalarini shakllantirish – ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, predmetni o‘qitish, talabalarni tarbiyalash, malaka oshirish, mehnat natijalari va jarayonlarini hujjatlarda qayd qilish, optimal ish rejimini ta’minlash, pedagogik hamda ishlab chiqarish jamoalarida shaxslararo munosabatlar tizimiga faol kirishishni o‘z ichiga oladigan qator xususiy maqsadlarni qo‘yish va ularga erishish orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyatga tayyorgarligi muammolari orasida asosiy muammolardan biri bu – ularning darajasi kasbiy innovatsion faoliyat talablariga muvofiq oliy ta’lim bitiruvchilarining yanada rivojlanishi hamda kasbiy moslashuv muddatini qisqartirish uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladigan maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda kadrlar iste’molchilari tomonidan oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassislarga kelajakda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini tashkil etish, ularni faslitatorlikka oid bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, yangiliklarni tushunishi, qabul qilishi va o‘zlashtira olish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy eta olish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, innovatsion faoliyatda mutaxassislikka oid kasbiy innovatsion sifatlarga ega bo‘lishlariga qo‘yilayotgan talablar tobora ortmoqda. Mos ravishda, mazkur talablar pedagogika yo‘nalishi bitiruvchilariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Demak, pedagogika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi ham yuqori darajada shakllantirilgan maxsus bilimlar, ko‘nikma va malakalarga hamda kasbiy ahamiyatga ega sifatlarga faslitatorlik ko‘nikmasiga ega bo‘lishi asosida, kasbiy innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lishi lozim.

1-jadval

Talabalarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda faslitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan fanlar tizimi

№	OTM yo‘nalish nomi	Fan nomi	Auditoriya soatlari		Mustaqil ta’lim	Izoh	
			Ma’ruza	Amaliy			
1.	60110100 – Pedagogika 3- bosqich	Pedagogika nazariyasi va tarixi	32	44	62	1- semestr	
		Ijtmoiy pedagogika	60	60	116	3-4 semsrt	
		Pedagogik mahorat	60	90	116	5-6 semestr	
2.	60110100 – Pedagogika 2-bosqich	Pedagogika nazariyasi va tarixi	32	44	62	1-2 semestr	
		Ijtmoiy pedagogika	60	60	120	3-4 semestr	
		Pedagogik mahorat	44	46	90	5-6	

Talabalarni kasbiy innovatsion faoliyatga ham faslitatorlik ko‘nikmalarini egallagan holda tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar: Guliston davlat universiteti pedagogika xamda psixologiya ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga ko‘ra 1.10 majburiy fanlar blokida nazarda tutilgan “Umumiy pedagogika”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik texnologiya”, “Kreativ pedagogika” fanlar pedagogika ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga ko‘ra fanlaridan ma’ruza, amaliy va mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarni kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda fasslitatori ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yich tegishli mavzular interfaol metodlar asosida tashkil etildi. Shuningdek talabalarni kasbiy innovatsion

faoliyatga tayyorlashda faslitatorlik ko‘nikmalarini shakllaantirish bo‘yicha o‘quv rejalarda nazarda tutilgan 3-bosqichda o‘tkaziladigan 4 haftalik malakaviy amaliyotlari muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar davomida yuqorida nazarda tutilgan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli fanlarning fan dasturlari o‘rganildi, fan dasturlarida nazarda tutilgan mavzular ketma-ketligi tuzildi.

Talabalarning faslitatorlik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish xamda faslitatorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha Pedagogika ta’lm yo‘nalishida ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari, pedagogik vositalari, metodlar tizimi quyidagi malaka klassifikatsiyasi bo‘yicha tahlil qilindi. Mazkur klassifikatsiya bo‘yicha talabalarni kasbiy innovatsion faoliyatga faslitatorlik faoliyatiga tayyorgarligini takomillashtirishni ko‘rib chiqdik.

Talabalarni faslitatorlik faoliyatiga tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar tizimi va tashkil etish shakllari quyidagilarga asoslanadi.

Pedagogik dasturiy vositalar:
- Xeymis tizimida dasturiy mahsulotlar;
- texnologik va metodik ta’minot;
- qo‘shimcha yordamchi vositalar.

Innovatsion pedagogik metodlar:
- an’anaviy metodlar;
- hamkorlikda o‘rganish;
- modellashtirish;
- tadqiqot.

Ta’limni tashkil etish shakllari:
- ma’ruza mashg‘ulotlari;
- seminar (amaliy) mashg‘ulotlar;
- mustaqil ta’lim;
- amaliyot.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi.

Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga:

o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi);

texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o‘rgatuvchi dasturlar – talabalarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

- trening dasturlari – faslitatorlik ko‘nikmalarini malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

- mashq qildirgichlar - o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

- o‘qituvchi ishtirokidagi o‘quv muhitini shakllantiruvchi.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an’anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, pedagogik guruhlarga ajratildi. Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat’iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiyaniiing asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o‘quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta’minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o‘rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to‘ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko‘rgazmalilik, faollashtirish (o‘qitish mustaqilligi hamda faolli xususiyatining mavjudligi), o‘qitish natijalarini o‘zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi kabilar.

Talabalarni faslitator faoliyatga tayyorlashda oliy ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir dars (ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot)ning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.